

UNUTILMAS ILMIY MEROS SOHIBI

*Abdujalilova Moxinur Valijon qizi
Toshkent davlat transport universiteti
ATM fakulteti 2-bosqich talabasi
E-mail: abdujalilovamohinur03@gmail.com
Tel: +99 893 748 56 66*

Annotatsiya: Shayxzoda ko‘pqirrali iste’dod sohibidir. U she’rlar va dostonlar bilan birga, juda yuksak badiiy quvvatga ega bo‘lgan dramalar ham yaratdi. Shayxzoda umrining so‘ngida yozishga kirishgan, lekin tugatib ulgurmagan “Beruniy” dramasini hisobga olmaganda ham, uning “Jaloliddin Manguberdi” va “Mirzo Ulug‘bek” dramalari allaqachon xalqimizning badiiy mulkiga aylanib, qalblarimizdan joy olgan asarlar sarasiga kiradi.

Kalit so‘zlar: Dramaturg, shoir, tarjimon, she’r, Jaloliddin Manguberdi asari.

Abstract: Sheikhzade is a multi-talented person. He, along with poems and epics, also created dramas with a very high artistic capacity. Even without taking into account the drama “Beruni”, which began to write at the end of his life, but did not finish and grew up, his drama

“Jalaliddin Manguberdi” and “Mirzo Ulugbek” have already become the artistic property of our people and enter the palace of works that take place in our hearts.

Key words: Playwright, poet, translator, poem, work of Jalaliddin Manguberdi.

O‘zbek adabiyotining atoqli namoyondalaridan biri, zabardast dramaturg, adabiy faylasuf Maqsud Ma’sum o‘g‘li Shayxzoda o‘zi e’tirof etganidek, she’riyatda zamonaviy voqelikni, dramaturgiyada esa tarixiy o‘tmishni tasvirlashga, hamda xalq va mamlakatning dardli masalalarini o‘tmishga bag‘ishlangan asarlarida ifodalashga intildi. Shayxzodaning she’r va dostonlari shunday rang-barang mavzularga bag‘ishlangani bilangina emas, turli vazn va janrlarda yozilgani bilan ham o‘zbek she’riyatini boyitgani shubhasizdir. O‘zbek adabiyotining atoqli nomoyondalaridan biri, mashhur shoir, zabardast dramaturg, adabiyotshunos olim va tarjimon maqsud Shayxzoda 1908-yil Ozarbayjonning Oqtosh shahrida tavallud topdi.

Shayxzoda 1928 yilda Toshkentga kelib, turli gazeta va jurnallar tahririylarida, 1935-1938 yillarda esa Fanlar qo‘mitasi qoshida til va adabiyot institutida ilmiy xodim bo‘lib ishlagan. Ikkinci jahon urushi yillarida shoir butun ijodiy quvvatini dushman ustidan qozonilajak g‘alaba safarbar etdi. Shoirning 1944-yilda “Jaloliddin Manguberdi” tarixiy dramasi bunga misol bo‘la oladi.

O‘tmishda Chingizxonday qudratli kuchga qarshi tura olgan, mardonavor kurashgan Vatan tiryagi-Jaloliddin Manguberdining qahramonliklarini jonlantira olgan drama. Ikkinci jahon urush yillarining jangovor vazifalariga kata xizmat ko‘rsatdi. Jaloliddin Manguberdi-tarixiy shaxs.

Shayxzodaning o‘zbek xalqi o‘tmishiga murojaat etishdan maqsadi ham o‘sha davrda ro‘y bergen voqealarni tarixiy saboq sifatida tasvirlash, dunyodagi eng yuksak qadriyat Vatan ozodligi ekanini kishilar diliga quyish edi. Shuning uchun ham “Jaloliddin Manguberdi” dramasida olg‘a surilgan g‘oya umumbashariy ahamiyatga egadir. Mazkur asarda bosh qahramon Jaloliddin tengsiz kurashda halok bo‘ladi. Ammo u, Otello yoki Hamlet singari mumtoz dramaturgiya qahramonlaridan farqli o‘laroq, o‘z hayotini Vatan ozodligi yo‘lida fido qiladi. Ikkinci jahon urushi yillarida xalqda vatanparvarlik va safarbarlik tuyg‘ularini tarbiyalash maqsadi bilan yozilgan va sahnaga qo‘yilgan bu asarning hayotbaxsh ruh bilan tugashi shart edi. Shuning uchun ham Shayxzoda Jaloliddinning o‘limi oldida xalqqa qarab bunday xitob qiladi:

Shunday ijodkorlar bo‘ladiki, ular vafotlaridan keyin ham nafaqat milliy adabiyot xazinasidan joy olgan asarlari, balki ajoyib insoniy fazilatlari va porloq obrazlari bilan ham xalq xotirasida abadiy yashaydilar. Shunday ijodkorlardan biri Maqsud Shayxzodadir. Nizomiy vatanida tug‘ilgan Shayxzoda falakning gardishi bilan o‘zbek tuprog‘iga kelib qolib, hayotining baxtli va fojiali kunlarini shu yerda kechirdi. Shu yerda shoir, dramaturg, adabiyotshunos olim, tarjimon va pedagog sifatida shakllanib, o‘zbek adabiyoti, adabiyotshunosligi va tarjima maktabi taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shdi.

Xorazm shohi Allouuddin Muhammadning o‘g‘li “Jaloliddin Manguberdi” dramasida Shayxzoda Vatan erki, Mustaqilligi uchun fidoyilarcha kurash olib brogan mana shu jasur sarkarda qiyofasini ba’diy gavdalantirdi. Jaloliddin Manguberdi Amir Temurga ham ibrat bo‘lgan buyuk siymodir. Ma’lumki, sho‘ro davrida o‘tmish tariximiz qoralab kelingan, chunki sho‘rolarga ana shunday vatanparvarlik qudrati ma’qul kelmas, bunday buyuk xislatlarini yangi avlodlarga o‘tishini istamas edilar, Vatanparvarlik hissiyoti jo‘s sh urib yozilgan Maqsud Shayxzodaning “Jaloliddin Manguberdi” dramasi 1945 yilda Hamza nomidagi O‘zbek davlat drama teatri tomonidan muvaffaqiyat bilan sahnalashtirilganligiga qaramay, ko‘p o‘tmay sahnadan olib tashlandi. Muallifga esa o‘tmishni, honlarni, beklarni, feodalizmni oqlash va yoqlash tamg‘asi yopishtirildi. Bu aybnoma nohaq qamalishiga ta’sir ko‘rsatdi. Drama to‘laligicha ilk bor o‘zbek tilida dramaturg vafotidan 21 yil o‘tgach (1988 yil) bosmadan chiqdi. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston hukumati “Jaloliddin Manguberdi” nomini abadiylashtirish maqsadida “Jaloliddin Manguberdining tavalludining 800 yilligi”ni nishonlash haqida (1998 yil) maxsus qaror qabul qildi. O‘zbekiston Respublikasi

Prezidentining farmoni bilan (2000 yil) “Jaloliddin Manguberdi” ordeni ta’sis etildi.

Bugungi kunda mustaqil O‘zbekistonimizda Jaloliddin Manguberdi hotirasiga bag‘ishlab “O‘zbekkino” milliy agentligi tomonidan ko‘p qismli “Mendirman Jaloliddin” nomli serial ham ommaga taqdim etilishi kuzatilgan. O‘zbekiston va turkiya kino ijodkorlari tomonidan ishlanayotgan ushbu serial tariximizni yanada chuqur bilgan holda bilimimizni boyitishga hamda yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Dramaturg shoir Maqsud Shayxzodaning qilgan xizmatlari besamar ketmadi. 2001 yili Shayxzoda “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlandi.

Adabiyotlar:

1. Mirvaliyev S., Shokirova R. O‘zbek adiblari. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 2016 yil.
2. Maqsud Shayxzoda. Mirzo Ulug‘bek. “O‘qituvchi”. Toshkent. 1994 yil, 134-bet.
3. Qozoqboy Yo‘ldoshov. Yoniq so‘z. ”Yangi asr avlodi”. Toshkent. 2006 yil, 217-bet.
4. Ozod Sharofiddinov. Ijodni anglash baxti. “Sharq” nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahriri. T.: 2004, 544-bet
5. Maksud Shayxzoda zamondoshlari xotirasida, T., 1983 y.
6. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi, T., 1999 y. – 25 b.
7. Shayxzoda Maksud. Shoir qalbi dunyoni tinglar (Tanlangan asarlar) // Toshkent, „Nihol“, 2008. - 28 b.
8. Abdujalilova M. Maqsud Shayxzoda hayoti va ijodining o‘zbek milliy adabiyotidagi tutgan o`rni T., 2022 y. - 1198 b. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences ISSN 2181-1784.
9. Abdujalilova M. Maqsud Shayxzoda - Ikki xalq dilbandi, T., 2022 y. – 284 b. Academic Research in Educational Sciences Volume 3. Multidisciplinary Scientific Journal October, 2022.